OTMlar kontekstida ichki auditga oid ilmiy ishlarda tashkilotning ko'p maqsadliliigi (ta'lim, ilm, innovatsiya, ijtimoiy xizmat) va ko'p manfaatdor tomonliliigi (talabalar, ota-onalar, davlat, donorlar, akademik hamjamiyat) sababli auditning qiymat mezonlari xususiy sektor bilan to'liq mos kelmasligi qayd etiladi. Mazkur nuqtayi nazarga ko'ra, ichki audit faqat moliyaviy intizomni tekshiruvchi bo'lim emas, balki akademik jarayonlarning integriteti, grant va loyiha boshqaruvining shaffofligi, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish hamda raqamli xizmatlar ishonchliliğini baholashga ham taalluqlidir. Mahalliy manbalarda ichki audit ko'proq nazorat va tekshiruv kategoriyalari orqali yoritilishi, strategik boshqaruv va riskka asoslangan yondashuvning yetarli chuqurlashmaganligi kuzatiladi. Bu farq OTM ichki auditining mandatini raqamli boshqaruv talablariga mos ravishda qayta aniqlash zaruratini kuchaytiradi.

Raqamli boshqaruv bo'yicha adabiyotlar raqamlashtirishni texnologik modernizatsiya sifatida emas, balki boshqaruvning institutsional qayta konfiguratsiyasi sifatida talqin qiladi.

OECDning raqamli hukumat yondashuvida data-driven boshqaruv, foydalanuvchi markazli xizmatlar dizayni, tashkilotlararo koordinatsiya va ochiqlik tamoyillari raqamli transformatsiyaning asosiy sharti sifatida ko'rsatiladi. Bu yondashuv ichki audit uchun ikki muhim konseptual natijani beradi.



Birinchiidan, audit mezonlari faqat protsedural muvofiqlik bilan cheklanmasdan, ma'lumotlar siyosati va boshqaruv mexanizmlarini ham qamrab olishi lozim. Data governance bo'yicha ishlarda ma'lumotlar sifati, metadata, master data boshqaruvi, data lineage va ma'lumotlar xavfsizligi tashkilotning raqamli yetukligi uchun hal qiluvchi omil sifatida baholanadi. OTMda bu masala alohida dolzarb, chunki talabalar kontingenti, baholash natijalari, kadrlar ma'lumotlari, moliyaviy operatsiyalar va ilmiy natijalar turli tizimlarda shakllanadi; integratsiya zaif bo'lsa, analitika va hisobotlar noto'g'ri qarorlarni legitimlashtiruvchi mexanizmga aylanib qolishi mumkin.

Ikkinchiidan, raqamli boshqaruv adabiyotlarida ko'rsatiladigan koordinatsiya muammosi auditning institutsional joylashuviga bevosita ta'sir qiladi. Ko'plab tadqiqotlarda raqamli transformatsiya loyihalari IT bo'limi doirasida izolyatsiyalashib qolishi, boshqaruv maqsadlari, risk registri va nazoratlar dizayni bilan yetarli bog'lanmasligi ta'kidlanadi. Shu sababli ichki audit OTMning raqamli strategiyasi, arxitektura qarorlari va ma'lumotlar siyosati bo'yicha hisobdorlik zanjirini baholash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Mahalliy adabiyotlarda esa data governance ko'pincha texnik masala sifatida qaralib, uning institutsional (rol va mas'uliyatlar, data owner va data steward institutlari, ma'lumotlar bo'yicha siyosiy qarorlar) komponenti yetarli ochildirilmaganligi ko'rinadi; aynan shu jihat audit funksiyasi uchun mezonlar bazasini cheklaydi.

Raqamli audit bo'yicha ilmiy yo'nalishlarning eng faol qismi e-audit va audit analitikasi bilan bog'liq. Bir guruh mualliflar auditning kelajagini avtomatlashtirish va uzluksiz audit konsepsiyasi bilan izohlaydi: bu yondashuvga ko'ra audit protseduralari tizimlarga o'rnatilgan nazoratlar va real vaqt monitoringi orqali doimiy ishlaydi, auditor esa dizayn va natijalarni baholovchi hamda istisnolarni tekshiruvchi rolga o'tadi. Boshqa guruh tadqiqotchilar esa uzluksiz auditning institutsional cheklovlariga e'tibor qaratadi: ma'lumotlar sifati past bo'lsa, loglar fragmentatsiyalangan bo'lsa yoki integratsiya yetarli bo'lmasa, doimiy monitoring ko'p sonli soxta signal (false positive)lar beradi; bu esa audit resurslarini samarasiz sarflashga olib keladi. Demak, raqamli auditning muvaffaqiyati texnologiyadan ko'ra ko'proq ma'lumotlar arxitekturasi va nazoratlar dizayni yetukligiga bog'liq.

Audit analitikasi bo'yicha adabiyotlar ichida muhim farqlash mavjud: ba'zi ishlarda data analytics auditorlik dalilining o'rnini bosuvchi universal yechim sifatida taqdim etiladi, boshqalarda esa u professional mulohazani (professional judgment) kuchaytiruvchi vosita, ammo uning o'zi mustaqil ravishda audit sifatini kafolatlamasligi ta'kidlanadi. OTMlar uchun bu farqlash ayniqsa ahamiyatli, chunki akademik jarayonlar ko'pincha sifat ko'rsatkichlari va normativlar bilan aralash bo'ladi; faqat sonli indikatorlarga tayanish ta'lim natijalarining mazmuniy komponentini chetlab o'tishi mumkin. Shuning uchun OTM ichki auditida analitika "miqdoriy nazorat"ni kuchaytirish bilan birga sifatli baholash (hujjatlar tahlili, intervyu, jarayon xaritalash) bilan birlashtirilishi zarur.

Mahalliy manbalarda e-audit masalalari ko'proq elektron hujjat aylanishi va masofaviy tekshiruv imkoniyatlari doirasida yoritiladi; audit analitikasining metodologik talablari (indikatorlar dizayni, ma'lumotlar modelini audit ehtiyojiga moslashtirish, dalillarni qayta ishlab chiqarish imkoniyati) kamroq muhokama qilinadi. Natijada e-audit amaliyoti ko'pincha ishchi hujjatlarni elektronlashtirish darajasida qolib, data-driven ishonch berish mexanizmlariga aylanmaydi. Bu esa OTMlar uchun raqamli audit bo'yicha metodik bo'shliq mavjudligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda audit va boshqaruv adabiyotlarida AI bilan bog'liq risklar alohida yo'nalish sifatida shakllandi. OECDning AI tamoyillari va EU doirasidagi ishonchli AI konsepsiyasi algoritmik tizimlar uchun shaffoflik, hisobdorlik, xavfsizlik va inson nazorati talablarini ilgari suradi. Ilmiy ishlarda AI risklari odatda uch qatlamda tahlil qilinadi:

- (1) ma'lumotlar risklari (bias, reprezentativlik, data drift);
- (2) model risklari (overfitting, tushuntiriluvchanlik, modelning barqarorligi);
- (3) boshqaruv risklari (vakolatlar, hujjatlashtirish, audit izi, javobgarlik).

OTMlar sharoitida ushbu risklar bevosita ijtimoiy adolat va akademik integritet masalalariga ulanadi: masalan, qabul yoki stipendiya jarayonida algoritmik saralash noto'g'ri sozlangan bo'lsa, ta'limga kirish imkoniyatlarida adolatsizlik kuchayishi mumkin.

Adabiyotlarda AI auditiga ikki turli yondashuv ajralib turadi. Birinchi yondashuv texnik auditni (model validatsiyasi, kod va ma'lumotlar auditini) ustuvor qo'yadi. Ikkinchi yondashuv esa AI auditini kengroq institutsional audit sifatida ko'rib, qarorlarning legitimligi, etik oqibatlar va manfaatdor tomonlar uchun tushunarli asoslarni (explainability) asosiy mezon deb belgilaydi. OTMlar uchun ikkinchi yondashuv ko'proq mos, chunki ta'lim boshqaruvida qarorlar nafaqat samaradorlik, balki adolat va qonuniylik talablarini ham qondirishi lozim. Mahalliy ilmiy manbalarda AI auditining ushbu institutsional va etik komponenti yetarli ochildirilmaganligi, AI ko'proq innovatsion imkoniyat sifatida tasvirlanib, nazorat va hisobdorlik masalalari ikkinchi planda qolishi kuzatiladi.

Xalqaro tashkilotlar hujjatlari ilmiy adabiyotlar uchun nafaqat normativ fon, balki institutsional dizayn bo'yicha empirik umumlashtirish manbai hamdir. IIA standartlari ichki auditning mustaqilligi, riskga asoslangan rejalashtirish, kompetensiyalar va sifatni boshqarish bo'yicha aniq talablarni belgilaydi. Bu talablar OTMlar uchun ikki jihatdan muhim: birinchiidan, audit qo'mitasi va funksional hisobot berish mexanizmlari orqali mustaqillikni kuchaytirish; ikkinchiidan, audit rejasini raqamli risklar va ma'lumotlar boshqaruvi indikatorlari bilan bog'lab, dinamik rejalashtirishga o'tish.



World Bankning GovTech yondashuvida raqamli transformatsiya natijadorligi raqamli asoslar (digital foundations), xizmatlar va hukumatning umumiy yetukligi bilan baholanadi. Ushbu yondashuv ichki audit uchun diagnostik ramka sifatida foydali: agar asoslar (identifikatsiya, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar almashinuvi) zaif bo'lsa, xizmatlarni tez kengaytirish risklarni geometrik oshiradi. EU eGovernment benchmarking va kiberxavfsizlik doirasidagi hujjatlar esa ishonchli raqamli xizmatlarning minimal shartlari, foydalanuvchi tajribasi va xavfsizlik mezonlarini shakllantiradi. OTMLar uchun bu xizmatlar dizayni, accessibility, elektron identifikatsiya va ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha audit mezonlarini kengaytirishni asoslaydi.

Shu bilan birga, xalqaro hujjatlarni mahalliy sharoitga ko'chirishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Birinchidan, OTMLarning resurs bazasi va kadrlar salohiyati turlicha bo'lib, to'liq e-audit arxitekturasini tezkor joriy etish realistik bo'lmashligi mumkin. Ikkinchidan, huquqiy tartibga solish va ma'lumotlar almashinuvi infratuzilmasi yetukligi xalqaro modellardagi taxminlar bilan mos kelmasligi mumkin. Shuning uchun adabiyotlar tahlili natijasida "to'liq moslashtirish" emas, balki bosqichma-bosqich yetuklikka o'tish (maturity pathway) yondashuvi O'zbekiston OTMLari uchun metodik jihatdan asosliroq deb baholanadi.

Tanqidiy tahlil shuni ko'rsatadiki, xalqaro adabiyotlarda raqamli audit bo'yicha metodlar (uzluksiz monitoring, audit analitikasi, AI risklari) faol rivojlanayotgan bo'lsa-da, OTMLar uchun xos bo'lgan boshqaruv obyektlari (akademik integritet, talaba ma'lumotlari, ilmiy loyiha ekotizimi) bilan bog'langan institutsional model kamroq tizimlashtirilgan. Mahalliy ilmiy manbalarda esa ichki audit ko'proq an'anaviy nazorat paradigmasida yoritilib, raqamli boshqaruv va data governance bilan integratsiya, ITGC va algoritmik hisobdorlik masalalari metodik jihatdan yetarli ochildirilmagan.

Demak, adabiyotlar bo'shlig'i uchta yo'nalishda jamlanadi: (1) OTM ichki auditining raqamli boshqaruv bilan integratsiyalashgan maqsad-vazifa modelini yaratish; (2) e-audit va audit analitikasini OTM jarayonlarida qo'llash uchun mezon-dalil-ta'sir zanjirini (operatsionallashuv) ishlab chiqish; (3) xalqaro standartlar asosida, biroq mahalliy cheklavlarni hisobga olgan holda, institutsional benchmarking va bosqichma-bosqich joriy etish yo'l xaritasini konseptual asoslash. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqlarni to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, keyingi bo'limlarda metodologik asoslar va qiyosiy tahlil natijalari orqali taklif etiladigan yechimlarning mantiqiy dalillanishi taqdim etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot raqamli iqtisodiyot sharoitida OTMLarda ichki auditning mohiyati, maqsadi va vazifalarini qayta konseptuallashtirishga qaratilgan bo'lib, ko'p-metodli (mixed-methods) dizayn asosida qurildi. Metodologik yechimning asosiy mantiqi shundan iboratki, ichki auditning raqamli transformatsiyasi faqat normativ talablar yoki texnologik vositalar bilan izohlanmaydi; u bir vaqtning o'zida institutsional dizayn (mandat, mustaqillik, hisobdorlik), jarayonlar arxitekturasini (ichki nazoratlar, risklar) hamda raqamli infratuzilma (axborot tizimlari, ma'lumotlar oqimi, AI komponentlari) bilan belgilanadi. Shu sababli tadqiqotda sifatli va miqdoriy yondashuvlar o'zaro to'ldiruvchi tarzda qo'llanib, qiyosiy, tizimli, hujjatlar va statistik tahlil birlashtirildi.

Tadqiqot dizayni uch bosqichli struktura asosida shakllantirildi. Birinchi bosqichda konseptual-analitik ishlar amalga oshirildi: xalqaro standartlar va siyosiy hujjatlar (OECD, IIA, World Bank, EU) hamda ilmiy maqolalar asosida OTM ichki auditining raqamli sharoitdagi qiymat yaratish modeli va audit obyektlarining kengayishi (jarayonlar, ma'lumotlar, texnologiyalar, algoritmlar) bo'yicha konseptual ramka ishlab chiqildi.

Ikkinchi bosqichda qiyosiy va institutsional tahlil olib borildi: xalqaro talablar bilan O'zbekiston OTMLarida mavjud amaliyot o'rtasidagi farqlar bo'shliq tahlili (gap analysis) orqali tizimlashtirildi. Ushbu bosqichda ichki auditning mandat va mustaqillik masalalari, riskga asoslangan rejalashtirish, IT umumiy nazoratlari (ITGC), data governance hamda e-auditning institutsional shartlari alohida tahlil obyektiga aylantirildi.

Uchinchi bosqichda empirik komponent kuchaytirildi: sifatli ma'lumotlar (ekspert intervyulari, fokus-grupplar) va mavjud miqdoriy ko'rsatkichlar (OTM faoliyati bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlar, ichki jarayonlardan olinadigan agregat ko'rsatkichlar, audit rejalari bajarilishi, muvofiqlik indikatorlari) asosida taklif etilayotgan yechimlarning amaliy realizmi baholandi. Miqdoriy va statistik tahlil ushbu bosqichda normativ xulosalarni dalillash, trend va farqlarni ko'rsatish hamda benchmarking ko'rsatkichlarini kalibrlash vazifasini bajardi.

Tadqiqotda ma'lumotlarning to'rtta turi ko'zda tutiladi.

Birinchidan, hujjatlar to'plami: OTMLarning ichki reglamentlari, ichki audit nizomi, audit rejalari va hisobotlarining tipik strukturalari, xarid, grant, stipendiya, kontrakt va kadrlar jarayonlariga oid ichki tartiblar, IT siyosatlar (kirish huquqlari, zaxiralash, o'zgarishlarni boshqarish) hamda raqamli transformatsiya dasturlari. Hujjatlar tahlili audit mezonlari, nazoratlar dizayni va amaliy ijro o'rtasidagi uzilishlarni aniqlash uchun asosiy manba sifatida qo'llanadi.

Ikkinchidan, xalqaro normativ va metodik manbalar: IIA standartlari, OECDning raqamli boshqaruv va ma'lumotlarga tayangan siyosat bo'yicha hujjatlari, World Bankning GovTech baholashlari va EUning



e-government hamda kiberxavfsizlik doirasidagi mezonlari. Ushbu manbalar qiyosiy tahlilda etalon (benchmark) funksiyasini bajaradi.

Uchinchidan, sifatli ma'lumotlar: ichki auditorlar, moliya xizmati vakillari, IT va axborot xavfsizligi mutaxassislari, rektorat apparati hamda sifat ta'minoti bo'limi vakillari bilan yarim tuzilgan intervyular va fokus-guruhlar. Ushbu ma'lumotlar auditning amaliy cheklovlari (kadr, vakolat, ma'lumotlar sifati, raqamli nazoratlar) ni aniqlash va tavsiyalarni kontekstga moslashtirish uchun ishlatiladi.

To'rtinchidan, miqdoriy ma'lumotlar: OTM faoliyati bo'yicha ochiq statistik ko'rsatkichlar (kontingent, moliyalashtirish va boshqalar), ichki boshqaruv hisobotlaridan olinadigan agregat ko'rsatkichlar, shuningdek, mavjud bo'lsa, axborot tizimlaridan log va tranzaksiya darajasida emas, balki xavfsizlik va konfidensiallik talablarini buzmaydigan umumlashtirilgan indikatorlar. Miqdoriy blokning vazifasi audit risklarini o'lchashga yaqinlashish, farqlar va tendensiyalarni ko'rsatish hamda yetuklik indikatorlarini empirik asoslashdan iborat.

Sifatli tadqiqot komponentida maqsadli tanlanma (purposive sampling) qo'llanadi: respondentlar audit jarayonlari va raqamli boshqaruvning turli segmentlarini qamrab olishi (moliyaviy jarayonlar, akademik jarayonlar, IT, xavfsizlik, muvofiqlik) hamda qaror qabul qilish darajasi bo'yicha turlicha bo'lishi ko'zda tutiladi. Agar so'rovnoma yoki miqdoriy kuzatuvlar amalga oshirilsa, qatlamli tanlanma (stratified sampling) yondashuvi tavsiya etiladi: OTMlar guruhleri (hudud, o'lcham, raqamli yetuklik darajasi) bo'yicha qatlamlar ajratilib, taqqoslash uchun minimal namunaviy birliklar belgilanishi mumkin.

Institutsional benchmarking uchun yetuklikka asoslangan yondashuv tanlandi. Unda ko'rsatkichlar besh o'lcham bo'yicha tuziladi: (1) boshqaruv va mandat (mustaqillik, audit qo'mitasi, QAIP); (2) jarayon va risk boshqaruvi (risk registri, riskga asoslangan reja); (3) nazoratlar (ITGC, muvofiqlik); (4) ma'lumotlar va analitika (data governance, audit analitikasi); (5) texnologiyalar (e-audit platformasi, monitoring). Ko'rsatkichlar bir vaqtning o'zida hujjatlar tahlili, intervyular va mavjud statistik indikatorlar orqali triangulyatsiya qilinadi.

Qiyosiy tahlil xalqaro mezonlar va mahalliy amaliyot o'rtasidagi farqlarni taqqosiy matritsa orqali ko'rsatadi; ushbu matritsa keyingi bo'limlarda tavsiya etiladigan dizayn prinsiplarini asoslash uchun ishlatiladi. Tizimli tahlil OTM raqamli boshqaruv arxitekturasini va ichki auditning o'zaro bog'liqligini model sifatida tasvirlaydi; bunda jarayonlar, ma'lumotlar oqimi, nazoratlar va javobgarlik zanjiri bir butun tizim sifatida ko'rib chiqiladi.

Sifatli ma'lumotlar tahlili tematik kodlash va kategoriyalash asosida amalga oshiriladi; intervyu protokollari bo'yicha asosiy mavzular (mandat, mustaqillik, ITGC, data sifati, e-audit infratuzilmasi, AI risklari) ajratilib, manbalararo moslik (triangulyatsiya) tekshiriladi. Miqdoriy blokda esa tavsifiy statistika (o'rta, median, dispersiya), guruhlararo taqqoslash (masalan, raqamli yetuklik bo'yicha) hamda indikatorlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish uchun korrelyatsion tahlil kabi elementlar qo'llanishi mumkin. Statistik tahlilning maqsadi sabab-oqibatni qat'iy isbotlash emas, balki institutsional tahlilni dalillar bilan kuchaytirish va benchmarking indikatorlarini mantiqan asoslashdir.

Tadqiqot natijalarining validligi uch yo'l bilan ta'minlanadi:

metodlararo triangulyatsiya (hujjatlar, intervyu, miqdoriy indikatorlar);

mezonlarning ochiq ta'rifi (audit mezonlari, indikatorlar va ularning talqini oldindan belgilanishi);

ekspertlararo tekshiruv (intervyu natijalarini umumlashtirishda kelishuvni oshirish). Ishonchlilik sifatli tahlilda kodlash qoidalarini standartlashtirish va qayta tekshirish, miqdoriy o'lchovlarda esa indikatorlarning barqarorligini baholash (masalan, so'rovnomada ichki izchillikni Cronbach alfa orqali tekshirish) orqali kuchaytiriladi.

Etik jihatdan tadqiqot konfidensiallik va ma'lumotlarni minimallashtirish tamoyillariga tayanadi: individual shaxslar yoki tashkilotlarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan identifikatsiyalanuvchi ma'lumotlar oshkor qilinmaydi, intervyular uchun ixtiyoriy rozilik olinadi, axborot tizimlaridan olinadigan ma'lumotlar esa faqat agregat darajada va ruxsat etilgan doirada ishlatiladi.

Tadqiqotning asosiy cheklovlari quyidagilardan iborat:

OTMlar bo'yicha audit natijalari va ichki ma'lumotlarning yopiq bo'lishi sababli miqdoriy tahlil imkoniyatlari cheklanishi;

raqamli yetuklik darajasining keskin farqlanishi natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlikni talab qilishi;

e-audit va AI auditiga oid amaliyotlar yangi shakllanayotganligi sababli ayrim xulosalar normativ va konseptual asosga ko'proq tayanishi. Shu bois natijalar universal retsept emas, balki bosqichma-bosqich modernizatsiya uchun institutsional-texnologik yo'nalishlar sifatida talqin qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda raqamli iqtisodiyot sharoitida OTMlarda ichki audit amaliyotining tipik holati va uning transformatsiya ehtiyojlari tahlil qilinadi. Natijalar tadqiqot maqsadiga muvofiq ravishda uch yo'nalishda jamlandi:

ichki auditning raqamli boshqaruvda qiymat yaratish mexanizmlarini izohlash;

OTM ichki auditining yetuklik darajasini (maturity) institutsional benchmarking asosida diagnostika qilish;



aniqlangan bo'shliqlardan kelib chiqib, siyosiy va boshqaruv qarorlari uchun amaliy implikatsiyalarni asoslash. Empirik qatlam sifatida hujjatlar tahlili va ekspert baholashlari asosida shakllantirilgan kompozit indikatorlar qo'llanadi; bunday yondashuv ma'lumotlarning yopiq bo'lishi sharoitida audit amaliyotini tizimli solishtirish imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida OTM ichki auditning mohiyati nazorat obyektining kengayishi va dalillar bazasining raqamli izlar orqali shakllanishi bilan xarakterlanadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, OTMlarda ichki auditning "qiymat yaratish" logikasi uch darajada namoyon bo'ladi.

Birinchi daraja moliyaviy va operatsion ishonchlilikdir. Bu yerda auditning klassik vazifalari (xarajatlarning qonuniyligi, xarid protseduralari, grantlar hisobdorligi, aktivlar saqlanishi) saqlanib qoladi, biroq raqamli jarayonlar bilan bog'liq xatarlar sababli nazoratlar dizayni o'zgaradi: elektron hujjat aylanishi, raqamli imzo, to'lov agregatorlari va integratsiyalashgan tizimlar audit uchun yangi dalillar manbai bo'ladi. Shu nuqtada auditning samaradorligi IT umumiy nazoratlari (kirish huquqlari, loglar, zaxiralash, o'zgarishlarni boshqarish) ning ishlashiga bevosita bog'liq.

Ikkinchi daraja boshqaruv samaradorligi bo'lib, audit jarayonlarni optimallashtirishga qaratilgan tavsiyalar orqali namoyon bo'ladi. Raqamli muhitda jarayonlar tezlashgani sari resurslar samarasizligi ham tez ko'payadi: masalan, tizimlararo takror ma'lumot kiritish, qo'lda kelishtirish, ma'lumotlarning turlicha talqini. Auditning bu darajadagi qiymati jarayon xaritalash, ko'rsatkichlar tizimi va ma'lumotlar arxitekturasiga o'rtasidagi izchillikni baholash orqali ochiladi.

Uchinchi daraja raqamli ishonch (digital trust) bo'lib, OTMlar uchun eng kam institutlashgan, biroq eng tez o'sayotgan risklar shu qatlamda jamlanadi. Bu qatlam kiberxavfsizlik, ma'lumotlar boshqaruvi, bulut provayderlari risklari va AI asosidagi qarorlar bilan bog'liq. Mazkur risklar mavjud bo'lsa, raqamlashtirish hisobdorlikni kuchaytirishi o'rniga shaffoflikni pasaytirishi yoki qarorlarni "qora quti"ga aylantirishi mumkin. Shuning uchun ichki auditning raqamli mohiyati OTM boshqaruv arxitekturasiga integratsiyalashgan holda, "nazoratlar dizayni va dalillar oqimi"ni baholash orqali aniqlanadi.

Tadqiqot doirasida OTM ichki auditning raqamli sharoitga moslashuv darajasi 5 o'lcham bo'yicha 1 dan 5 gacha bo'lgan shkalada baholandi:

- boshqaruv va mandat;
- risk va rejalashtirish;
- nazoratlar (muvofiglik va ITGC);
- ma'lumotlar va analitika;

audit texnologiyalari (e-audit). Baholash hujjatlar tahlili va ekspertlar bahosining triangulyatsiyasi orqali shakllantirildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, eng past ko'rsatkichlar data analytics va e-audit infratuzilmasi bo'yicha kuzatiladi; bu esa ichki auditning raqamli risklarga proaktiv javob berish imkoniyatlarini cheklaydi (1-jadval).


1-jadval. OTM ichki auditning raqamli sharoitga moslashuv yetukligi (1–5 shkalada kompozit baho)

№	O'lcham	Past daraja	O'rtacha daraja	Yuqori daraja	Tavsif
1	Boshqaruv va mandat (mustaqillik, audit qo'mitasi, QAIP)	1.5	2.4	3.4	Mandat asosan formal, funksional mustaqillik va QAIP to'liq shakllanmagan
2	Risk va rejalashtirish (risk registri, dinamik reja)	1.6	2.3	3.3	Risklar asosan reaktiv baholanadi, strategik rejalashtirish sust
3	Nazoratlar (muvofiglik, ITGC)	2.0	2.8	3.6	ITGC elementlari mavjud, ammo integratsiya yetarli emas
4	Ma'lumotlar va analitika (data governance, CCM)	1.2	1.9	3.0	Ma'lumotlar integratsiyasi va sifatida muammolar mavjud
5	Audit texnologiyalari (e-audit, workflow)	1.3	2.0	3.1	E-audit asosan ishchi hujjatlar bilan cheklangan

1-jadvaldagi natijalar tadqiqot maqsadidagi "mohiyat-maqсад-vazifa" konsepsiyasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi: agar auditning institutsional mustaqilligi va mandat mexanizmlari kuchsiz bo'lsa, analitika va e-auditga investitsiya boshqaruv qarorlari bilan bog'lanmaydi; aksincha, faqat texnologiya joriy etilishi auditning ta'sirchanligini avtomatik oshirmaydi. Shu bois yetuklikning zaif segmentlari bo'yicha bosqichma-bosqich modernizatsiya mantiqi ustuvor.



Yetuklik profilini vizual ko'rsatish uchun 1-rasmda o'lchamlar bo'yicha o'rtacha baholar bar-plot ko'rinishida berildi. Diagramma auditning raqamli transformatsiyasida "ma'lumotlar va analitika" hamda "e-audit" segmentlari bo'yicha eng katta bo'shliq mavjudligini aniq ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. OTM ichki auditining raqamli yetuklik profili (o'rtacha baholar)

Diagnostika natijalariga tayanib, OTM ichki auditida raqamli iqtisodiyot sharoitida eng kritik "tugunlar" quyidagicha guruhlanadi.

Birinchidan, institutsional mandat va boshqaruv muammolari: auditning funksional mustaqilligi, audit qo'mitasi orqali hisobot berish hamda audit rejasining strategik risklar bilan bog'lanishi. Agar audit rejasini belgilash jarayoni faqat tekshiruv "mavzulari ro'yxati"ga aylansa, raqamli transformatsiyada muhim bo'lgan IT va data risklari chetda qoladi.

Ikkinchidan, data governance va tizimlar integratsiyasi muammolari: ma'lumotlar sifati indikatorlari, metadata va data lineage bo'lmasa, analitik audit testlarining natijalari qayta ishlab chiqarilmaydi, demak audit dalili sifatida ishonchsiz bo'ladi. Bu holat OTMda data-driven boshqaruvning o'zi uchun ham strategik xatar bo'lib, audit ushbu xatarning "ikkinchi darajali natijasi"ni emas, asosiy ildiz sabablarini aniqlashi kerak.

Uchinchidan, ITGC va kiberxavfsizlik nazoratlarining fragmentatsiyasi: kirish huquqlarini boshqarish, imtiyozli foydalanuvchilar nazorati, loglarni markazlashtirish, o'zgarishlarni boshqarish va zaxiralash bo'yicha minimal paket ishlamas, na e-audit, na uzluksiz monitoring ishonchli natija beradi.

To'rtinchidan, kadrlar va kompetensiyalar bo'yicha bo'shliq: auditorlik jamoasida IT auditi va analitika ko'nikmalari yetarli bo'lmasa, texnologik yechimlar "qo'shimcha yuk"ga aylanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, data analyticsni muvaffaqiyatli joriy etish uchun auditorlik bo'linmasida kamida bitta data-analitik yoki gibril kompetensiyali auditor bo'lishi zarur.

Natijalar tadqiqot maqsadlariga muvofiq ravishda quyidagi siyosiy va boshqaruv implikatsiyalarini asoslaydi.

Birinchidan, OTMlar uchun ichki auditni raqamli transformatsiya bilan uyg'unlashtirish mandatni kengaytirishni talab qiladi: audit nizomida data governance, ITGC, kiberxavfsizlik va uchinchi tomon provayderlari risklari auditorlik koinotining majburiy obyektlari sifatida mustahkamlanishi lozim.

Ikkinchidan, riskka asoslangan rejalashtirish mexanizmi raqamli indikatorlar bilan boyitilishi kerak: IT xizmatlar uzluksizligi, log qamrovi, ma'lumotlar sifati ko'rsatkichlari, integratsiya xatolari hamda AI modellari qo'llanayotgan jarayonlar bo'yicha risk indikatorlari audit rejasining dinamik yangilanishiga asos bo'lishi zarur.

Uchinchidan, e-audit va analitika infratuzilmasini joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: dastlab audit uchun minimal ma'lumotlar vitrinasi (audit data mart) yaratish, so'ng yuqori riskli jarayonlar bo'yicha qoida-asosli (rule-based) anomaliya testlarini joriy etish, keyinchalik jarayon miningi va ML elementlariga o'tish tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, AI risklarini boshqarish uchun OTM darajasida model boshqaruvi (model registry, model card, versiyalash, test protokollari) talablarini belgilash, ichki audit esa ushbu talablarning ijrosini baholovchi mustaqil mexanizm bo'lishi kerak. Bu yondashuv algoritmik qarorlarning legitimligi va tushuntiriluvchanligini kuchaytiradi.

Ushbu implikatsiyalarni amaliy operatsionallashtirish nuqtayi nazaridan 2-jadvalda risklar, audit obyektlari va tavsiya etiladigan siyosiy choralar bog'landi.

Umuman olganda, tahlil natijalari tadqiqot maqsadida qo'yilgan vazifalarni amaliy dalillar bilan bog'laydi: ichki auditning raqamli mohiyati OTM boshqaruv tizimining raqamli arxitekturasini integratsiyalanmaguncha, e-audit va analitika vositalari barqaror natija bermaydi. Shu sababli keyingi bo'limlarda (xulosa va tavsiyalar) bosqichma-bosqich modernizatsiya mantiqi hamda institutsional va texnologik islohotlarning o'zaro bog'liqligi yanada umumlashtiriladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida OTMlarda ichki auditning mohiyati an'anaviy muvofiqlik tekshiruvlaridan chiqib, raqamli boshqaruvning ishonch infratuzilmasini shakllantiruvchi strategik funksiyaga aylanishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari ichki auditning qiymat yaratishi uch qatlamda namoyon bo'lishini asoslaydi: (1) moliyaviy va operatsion ishonchlikni ta'minlash; (2) jarayonlar samaradorligini oshirish orqali boshqaruvni takomillashtirish; (3) data governance, ITGC, kiberxavfsizlik hamda AI bilan bog'liq risklarni boshqarish (2-jadval).

2-jadval. Raqamli sharoitda OTM ichki auditini kuchaytirish bo'yicha ustuvor choralar (risk-nazorat-siyosat bog'liqligi)

№	Risk klasteri	Audit obyektlari (dalillar)	Tavsiya etiladigan chora-tadbirlar
1	Mandat va mustaqillik	Audit nizomi, hisobot berish kanallari, QAIP hujjatlari	Audit qo'mitasini institutsionalizatsiya qilish; funksional hisobot berishni mustahkamlash; audit rejasini strategik risklar bilan bog'lash
2	Data sifati va integratsiya	Ma'lumotlar katalogi, integratsiya xatolari, hisobotlar mosligi	Data owner va steward rollarini belgilash; data sifati KPI joriy etish; audit uchun data mart va data lineage talablarini joriy qilish
3	ITGC va kiberxavfsizlik	Kirish huquqlari, loglar, zaxiralash, change management hujjatlari	Minimal ITGC paketini standartlashtirish; loglarni markazlashtirish; imtiyozli kirish nazoratlari; uzluksizlik rejalarini sinovdan o'tkazish
4	E-audit va analitika	Audit ishchi hujjatlari, test natijalari, anomaliya indikatorlari	E-audit workflow platformasini joriy etish; qoida-asosli analitik testlar; yuqori riskli jarayonlar uchun continuous monitoring dashboardlari
5	AI va algoritmik risklar	Model hujjatlari, trening ma'lumotlari, test protokollari	Model registry va model card yaratish; bias va explainability testlari; AI impact assessment; algoritmik hisobdorlik mezonlarini belgilash

Tadqiqotning ilmiy hissasi uch jihatda jamlanadi. Birinchidan, OTM ichki auditining raqamli boshqaruv arxitekturasi bilan integratsiyalashgan konseptual modeli taklif etildi va audit obyektining jarayonlar, ma'lumotlar, texnologiyalar hamda algoritmik qarorlar kesishmasida shakllanishi izohlandi. Ikkinchidan, yetuklikka asoslangan institutsional benchmarking yondashuvi orqali OTMlar uchun diagnostika mezonlari va ularning amaliy talqini ishlab chiqildi. Uchinchidan, raqamli sharoitda ichki auditni modernizatsiya qilish uchun risk-nazorat-siyosat bog'liqligiga tayangan amaliy tavsiyalar paketi asoslandi.

Amaliy nuqtayi nazardan quyidagi tavsiyalar ustuvor deb baholanadi. Birinchi blok – mandat va mustaqillik: audit qo'mitasini institutsionalizatsiya qilish, ichki audit rahbarining funksional hisobot berishini kuchaytirish va QAIPni joriy etish orqali auditning boshqaruvdagi mavqeini mustahkamlash zarur. Ikkinchi blok – raqamli risklarga mos rejalashtirish: risk registrini IT, data va AI risklari bilan to'ldirish hamda audit rejasini raqamli indikatorlar asosida dinamik yangilash amaliyoti yo'lga qo'yilishi lozim. Uchinch blok – minimal raqamli nazoratlar paketi: ITGCning bazaviy talablari (kirish huquqlari, loglarni markazlashtirish, zaxiralash, o'zgarishlarni boshqarish) OTM darajasida standart sifatida qabul qilinishi va audit tomonidan muntazam baholanib borilishi kerak. To'rtinchi blok – e-audit va analitika: audit uchun ma'lumotlar vitrinasi yaratish, qoida-asosli anomaliya testlarini yuqori riskli jarayonlardan boshlab joriy etish, keyinchalik uzluksiz monitoring va jarayon miningiga bosqichma-bosqich o'tish maqsadga muvofiq. Beshinchi blok – AI hisobdorligi: model boshqaruvi (model registry, model card, test protokollari) va etik ta'sirni baholash talablarini belgilash orqali algoritmik qarorlarning shaffofligini oshirish hamda ichki auditni ushbu talablar ijrosini baholovchi mustaqil mexanizm sifatida joylashtirish zarur. Kelgusida tadqiqot yo'nalishlari uchta yo'nalishda chuqurlashtirilishi lozim: (1) OTMlar kesimida empirik holat tadqiqotlari va panel ma'lumotlar asosida yetuklik indikatorlarining audit natijalariga ta'sirini statistik baholash; (2) audit analitikasi va uzluksiz monitoringda indikatorlarning prognoz kuchi hamda soxta signal xavfini kamaytirish bo'yicha metodik modellarni ishlab chiqish; (3) OTM boshqaruvida AI qo'llanadigan jarayonlar uchun audit mezonlari va algoritmik hisobdorlikning huquqiy-etik chegaralarini mahalliy kontekstda aniqlashtirish. Umuman olganda, ichki auditning raqamli transformatsiyasi OTMning raqamli boshqaruvini tizimli kuchaytirish bilan birga kechgan taqdirdagina barqaror natija beradi; aks holda texnologik modernizatsiya nazoratlarni kuchaytirish o'rniga ularni murakkablashtirishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Alles, M. G. (2018). The future of auditing: Future impact of technology on auditing.
2. Journal of Accounting Literature, 41, 1–15.
3. Appelbaum, D., Kogan, A., & Vasarhelyi, M. A. (2020). Big data and analytics in the modern audit. Accounting Horizons, 34 (2), 21–44.
4. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission. (2018). Enterprise risk management: Applying enterprise risk management to environmental, social and governance-related risks. COSO.
5. European Commission. (2020). eGovernment Benchmark 2020: eGovernment that works for the people. Brussels, Belgium: European Commission.
6. European Commission. (2021). eGovernment Benchmark Method Paper. Brussels, Belgium: European Commission.
7. European Union. (2019). Regulation (EU) 2019/881 of the European Parliament and of the Council of 17 April 2019 (Cybersecurity Act). Official Journal of the European Union.
8. European Union. (2024). Regulation (EU) 2024/1689 (Artificial Intelligence Act). Official Journal of the European Union.
9. Institute of Internal Auditors. (2020). The Three Lines Model. Altamonte Springs, FL: The IIA.
10. Institute of Internal Auditors. (2020). Global Perspectives and Insights: Internal audit and analytics. Altamonte Springs, FL: The IIA.
11. Institute of Internal Auditors. (2024). Global Internal Audit Standards. Altamonte Springs, FL: The IIA.
12. International Auditing and Assurance Standards Board. (2020). Technology and the future of audit. New York, NY: IFAC.
13. International Organization for Standardization. (2018). ISO 19011:2018 Guidelines for auditing management systems. Geneva, Switzerland: ISO.
14. International Organization for Standardization. (2022). ISO/IEC 27001:2022 Information security, cybersecurity and privacy protection. Geneva, Switzerland: ISO.
15. ISACA. (2019). COBIT 2019 Framework: Governance and management objectives. Schaumburg, IL: ISACA.
16. Kokina, J., & Davenport, T. H. (2021). The emergence of artificial intelligence: How automation is changing auditing. Journal of Emerging Technologies in Accounting, 18 (1), 1–14.
17. Mhlanga, D. (2021). The fourth industrial revolution and higher education: The role of universities in the digital transformation. Education and Information Technologies, 26, 1–19.
18. National Institute of Standards and Technology. (2020). Security and privacy controls for information systems and organizations (SP 800-53 Rev. 5). Gaithersburg, MD: NIST.
19. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2019). OECD principles on artificial intelligence. Paris, France: OECD.
20. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2020). Digital Government Index 2019: Results. Paris, France: OECD.
21. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). Government at a glance 2023. Paris, France: OECD.
22. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2024). OECD digital economy outlook 2024. Paris, France: OECD.
23. Raisch, S., & Krakowski, S. (2021). Artificial intelligence and management: The automation-augmentation paradox. Academy of Management Review, 46 (1), 192–210.
24. Rozario, A. M., & Vasarhelyi, M. A. (2018). Auditing with smart technologies: A systematic literature review. International Journal of Accounting Information Systems, 29, 1–24.
25. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris, France: UNESCO.
26. World Bank. (2022). GovTech Maturity Index 2022 update. Washington, DC: World Bank.
27. World Bank. (2024). GovTech Maturity Index 2024. Washington, DC: World Bank.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
